

BADIIY TARJIMADAGI LEKSIK VA SEMANTIK MUAMMOLAR

Baxtiniso Aliyeva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya:

Mazkur ishda badiiy tarjima jarayonida uchraydigan leksik va semantik muammolar tahlil qilinadi. Asosan, tarjimada muallif uslubining to'g'ri yetkazilishi, so'zma-so'z tarjima oqibatida ma'no yo'qolishi, ko'p ma'nolilik, sinonimiya, idiomalar, madaniy kontekstga bog'liq leksik birliklarning tarjimadagi talqini yoritiladi. Shuningdek, tarjimonning til va madaniyatlararo bilim darajasi muammolar yechimida muhim o'rin tutishi ko'rsatiladi. Ish badiiy asar tarjimasida mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlash yo'llarini ham ochib beradi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, leksik muammo, semantik muammo, sinonimiya, ko'pma'nolilik, idiomalar, madaniy kontekst, tarjimon, ma'no yo'qotilishi.

Leksik muammolar- matnlarni yoki adabiy asarlarni boshqa tilga o'girish jarayonida so'z yoki iboralar darajasida yuzaga keladigan qiyinchiliklardir. Badiiy tarjimada bu kabi muammolar juda muhim ahamiyat kasb etadi, sababi badiiy matn bu shunchaki axborot hisoblanmaydi, balki bu muallifning o'ziga xos uslubi, his-tuyg'ulari va shu bilan birgalikda madaniy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bu ish juda mas'uliyatli bo'lib, tarjimondan so'zlarning to'g'ri ma'nosini, madaniy kontekstini va stilistik tusidan ham xabardor bo'lishini talab qiladi¹.

Quyida endi biz leksik muamolarning turlari haqida fikr yuritamiz. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan juda ko'plab leksik muammolar bor va mana shulardan biri Polisemiya deb ataladi. Polisemiya(ko'p ma'nolilik) bu bir so'zning bir nechta yoki undan ko'p ma'nosi bo'lishidir va shu vaziyatda tarjimon matn mazmuniga mos so'zni tanlashi kerak bo'ladi va bu ham muammoga sabab bo'lishi mumkin². Misol tariqasida shuni keltirib o'tishim mumkinki, ingliz tilidagi "light" so'zi bunga yaxshi misol bo'la oladi, chunki u yorug'lik, va yengil deb tarjima qilinadi. Bunda ijodkor kontekstga qaysi ma'noda mos kelishiga qarab tanlashi zarur³ⁱⁱ.

Polisemiya ko'plab boshqa asarlarda ham duch keladi va odatda tarjimonga biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunday holatda tarjimon so'z ma'nosini matnning mavzusiga qarab tanlashi kerak bo'ladi. Misol sifatida ko'rishimiz mumkin bo'lgan yana bir gap borki; "She is a good gal, very bright, optimistic and a good voice of reason, which I desperately needed

¹ Vinogradov, V. V. Problemiy perevoda. Moskva: Nauka, 1973, P. 45-- 67

² Nida, Eugene A. Language structure and translation. Stanford University press, 1975, P. 112-- 120

³ Bassnett, Susan. Translation Studies. Routledge, 2014, P. 75-- 92.

during our voyage.”⁴ Ushbu gapda polisemiya hodisasi yuz bergan desak bo‘ladi. Sababi “Bright” – bu so‘z o‘zining haqiqiy ma’nosida “yorqin” yoki “aqli” degan ma’noni anglatadi. Ammo bu yerda “bright” kishi yoki shaxsning aqli, ma’naviy yoki ijobiy bo‘lishini anglatadi. Tarjima jarayonida yana kelib chiqadigan muammolardan biri bu ekvivalentlik muammosidir, va u juda keng muhokama qilinishga sababchidir. Ekvivalentlik bu tarjima qilingan va asl matn o‘rtasida kelib chiqadigan mazmun, tuzilma yoki uslub va kommunikativ maqsad jihatdan muvofiqlikni bildiradi va bu juda murakkab masalalardan biridir⁵. Ekvivalentlikning o‘ziga xos turlari mavjud va bular Formal ekvivalentlik, Dinamik (funktional) ekvivalentlik, Denotativ va konnotativ ekvivalentlik va Tekstual ekvivalentlik deb nomlanadi va hammasi har xil vazifani bajaradi⁶. Formal ekvivalentlikda tarjima qilinayotgan matnning ham shakl jihatdan ham Grammatik jihatdan tuzilishini imkon qadar saqlashga harakat qilinadi. Dinamik ekvivalentlikda esa maqsad o‘quvchiga asl nusxadagi voqea va hodisalar qanday ta’sir etsa tarjima qilingan shakli ham shunday ta’sir qilinishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari denotativ ekvivalentlikda matn ham lug‘aviy ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelishi kerak. Konnotativ turida esa qilinayotgan tarjimada so‘zlar emotsional va stilistik xilma-xilligi jihatidan bir-biriga mos kelishi kerak. Ohirgi turlaridan biri bu tekstual turidir va bunda maqsad, matnda umumiy kommunikativlikni va uslubni saqlab qolishga harakat qilishdan iboratdir⁷.

Shunday qilib ekvivalentlik muammosi ham tarjima jarayonida juda ko‘p uchraydigan masalalardan biri hisoblanadi va bu holat ijodkordan kata tajriba va mehnat talab qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bu masalalar tarjima jarayonida aynan yuqorida keltirib o‘tilgan muvofiqlikni saqlash ko‘plab qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin deb o‘ylayman.

Mening fikrimcha bu muammolarning sabablari turlichadir. Masalan bunga mahalliy tafovutlar sabab bo‘lishi mumkin. Chunki ba’zi xalqlarda ba’zi so‘zlarning va iboralarning boshqa bir mamlakat madaniyatida mavjud bo‘lmasligi ham mumkindir. Misol sifatida shuni keltirishim mumkinki, ingliz tilidagi “Thanksgiving”⁸ bayramini o‘ylashimcha o‘zbek tiliga aynan tarjima qilish juda mushkul va aynan muqobil varianti yo‘q. Shuningdek, madaniy semantikada konkret xalq yoki tilga xos ifodalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish mumkin emas. Masalan, ingliz tilidagi “Thanksgiving” bayrami o‘zbek tilida funktsional ekvivalent bilan izohlanmasa, o‘quvchi uchun notanish qoladi. Tarjimon bu bayramni "Shukronalik kuni, oilaviy an’ana sifatida nishonlanadigan AQSh bayrami" deb izohlash orqali semantik aniqlik kiritadi. Bundan tashqari, til tuzilishida ham ancha kata farqlar bo‘lishi mumkin. Masalan, har bir millatning tili tuzilishida Grammatik va sintaktik strukturalari har xil bo‘ladi.

⁴ Tricia Levenseller. *Daughter of the Pirate King*.—Nyu-York: Feiwei and Friends, 2017. – P.8.

⁵ Nida, Eugene A. *Toward a Science of Translating*. Leiden: E.J. Brill, 1964

⁶ Koller, Werner. *Einführung in die Übersetzungswissenschaft*. Heidelberg: Quelle & Meyer, 1979

⁷ Jakobson, Roman. “On Translation”, ed. Reuben A. Brower, Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959

⁸ Newmark P. *A Textbook of Translation*. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

Tarjima jarayonida kelib chiqadigan muammolardan yana biri bu frazeologik birliklar muammosidir va bu matnni boshqa tilga o'girishda murakkablik tug'diradi. Shu o'rinda bu muammo haqida batafsil ma'lumot berib, mavzuni yoritib bermoqchiman.

Frazeologik muammo bu yaxlit ibora sifatida ishlatiladigan turg'un birikma bo'lib, ularning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqmaydi⁹. Frazeologik birliklarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish mumkin emas chunki ularning ko'pchiligi o'ziga xos majoziy ma'noga ega bo'ladi, ularni shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish noto'g'ri yoki kulguli bo'lishi mumkin. Misol sifatida shuni keltirib o'tishim mumkinki, ingliz tilidagi "spill the beans" iborasi "fasol to'kmoq emas" balki "sirni oshkor qilmoq" deb tarjima qilinishi kerak¹⁰. Agar biz shu so'z birikmasini so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak ma'no ummuman chiqmaydi va noto'g'ri tarjima hisoblanadi. O'z o'rnida bu juda ko'plab muammolarga sabab bo'lishi mumkin, sababi matnni o'qiyotgan o'quvchi ham mazmunni yaxshi tushunolmaydi va bu qiyinchilik tug'diradi.

Bundan tashqari, kontekstga bog'liq tafovutlar ham muammo tug'dirishi muki. Ba'zi frazeologik birliklar faqatgina ma'lum bir kontekstda ishlatiladi. tarjimon kontekstni to'g'ri tushunmasa, iboraning ma'nosini noto'g'ri anglab, bu xato tarjimaga olib keladi¹¹.

Shu o'rinda shuni ta'kidlashim kerakki, har bir xalqning madaniyatiga mos turg'un iboralar mavjud bo'lib, ularning boshqa til va madaniyatda to'g'ridan-to'g'ri mos keluvchi shakli bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham bu masala biroz murakkab va mas'uliyatlidir. Shuning uchun ham frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ba'zi bir strategiya va yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan biri esa ekvivalent frazeologizm bilan almashtirishdir. Bunda ma'nodosh frazeologizmni tanlab, milliy ohangni saqlash kerak bo'ladi. Misol sifatida keltiradigan bo'lsam, inglizlarda keng qo'llaniladigan iboralardan biri "He kicked the bucket"dir¹². Bunda tarjima qilish jarayonida "U chelakni tepdi" deb tarjima qilinmaydi. Balki "U olamdan o'tdi" deyiladi. Shuning uchun ham ijodkor ehtiyotkor bo'lishi darkor.

Yana boshqa yondashuvlardan biri bu ma'nodosh oddir ibora bilan ifodalashdir. Bunda frazeologik birlikning umumiy ma'nosi tarjima qilinib, ma'no saqlab qolinadi. Masalan: "Break the ice"- "Suhbatni boshlab yuborish" deganidir¹³. Bunda "Muzni sindirish" deb so'zma-so'z tarjima qilish xato hisoblanadi.

Tarjima jarayonida uchraydigan yana bir leksik muammolardan biri bu realiyalar va madaniy birliklar muammosi hisoblanadi. Boshqa bir mamlakat madaniyatida mavjud bo'lmagan,

⁹ Kunnuzova, M.R.. Tarjimada frazeologizmlarni ekvivalentlash muammolari. Toshkent, 2019: O'ZMU nashriyoti. B.31.

¹⁰ Baker, M In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.) London : Routledge.—2018 P.32

¹¹ Vinay, J.P., & Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English : A Methodology for Translation. Amsterdam : John Benjamins Publishing,-- 1995. P.36-39

¹² Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall 1988 – P.88

¹³ Komissarov, V.N. Theory of Translation. Moscow : Vyssaja Shkola, 1990.-- P.37

faqatgina bir tilga xos bo‘lgan atamalar ya’ni realiyalar tarjima qilinayotganda tarjimon ularni tushuntirishi, izohli tarjima yoki ekvivalent qidirishi kerak bo‘ladi. Sababi boshqa madaniyatda ma’lum bir so‘zlar, tushunchalar, buyum yoki ijtimoiy hodisalarning bevosita ekvivalenti mavjud emas. Misol sifatida shuni keltirishim mumkinki o‘zbek tilida uchraydigan samovar, pilaf, yurt¹⁴kabi so‘zlar ingliz tilida mavjud bo‘lmasligi mumkin va bunday vaziyatda ijodkor ingliz tilida izoh bilan berishiga to‘g‘ri keladi.

Bundan tashqari boshqa misollarni na’mana sifatida keltirsam, o‘zbeklarda kiyadigan milliy kiyimlari, masalan chapan yoki kimono boshqa yevropa madaniyatlarida mavjud emas, va shunday vaziyatda ijodkor tarjima qilayotgan asar matniga izoh sifatida tushuntirib o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Chunki shunday asarlarni o‘qiyotgan madaniyatda bu birliklar tushunmovchilik yoki noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbek tilidagi “Navro‘z” so‘zini ingliz tiliga tarjima qilishda “Navruz” deb yozish mumkin. Masalan “Navruz, the Persian New Year festival celebrated on the first day of spring” deb izoh bersa bo‘ladi.

Tarjimada so‘z yasash va affikslar muammosi

So‘z yasash — har bir tilning asosiy morfologik jarayonlaridan biri bo‘lib, yangi so‘zlarni hosil qilishda qo‘shimchalar (affikslar) va boshqa morfemalardan foydalanishni anglatadi. Tarjimada esa tilning so‘z yasash tizimidagi farqlar katta muammo tug‘diradi, chunki bir tilning affiksi boshqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lmasligi mumkin¹⁵.

Mening fikrimcha ham tarjima jarayonida so‘z yasash tizimidagi farqlar juda xilma-xil va har bir tilning o‘ziga xos bo‘lganligi uchun bu muammo tug‘diradi. Chunki har bir tilning kelib chiqishi, tarixi, yasaliş tizimi har xildir.

O‘zbek tilida so‘z yasash ko‘plab qo‘shimchalar yordamida amalga oshadi. Masalan, «o‘q» ildizidan «o‘qituvchi», «o‘quvchi», «o‘qishga» kabi so‘zlar hosil qilinadi. Bu yerda «-uvchi», «-chi», «-ga» kabi affikslar yangi leksik yoki grammatik ma’no beradi. Ingliz tilida esa ko‘pincha yangi so‘zlarni hosil qilish uchun boshqa morfemalar — prefikslar, suffikslar yoki so‘z birikmalari ishlatiladi. Masalan, «teacher» — «o‘qituvchi» so‘zining mustaqil, leksik birlik sifatida mavjud bo‘lgan shakli, unda affikslar o‘zbek tilidagi kabi alohida ko‘rinishda emas¹⁶.

Mening fikrimcha, tarjimada aynan bu farq muammodir. Chunki, o‘zbek tilidagi qo‘shimcha orqali hosil qilingan so‘zlarni ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish ko‘pincha mumkin emas yoki noto‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, «o‘qituvchi» so‘zini ingliz tiliga tarjima qilganda, teacher so‘zi bilan ifodalash kerak, chunki «-uvchi» qo‘shimchasining bevosita ekvivalenti

¹⁴ Kunnuzova, M.R Tarjimada frazeologizmlarni ekvivalentlash muammolari. Toshkent, 2019: O‘ZMU.nashriyoti.B.34-35

¹⁵ Farajova.U.A “Affixation: A Productive Way of Word Formation.” Research in Multidisciplinary Studies, 2024. -- B.2-3

¹⁶ Hojiyev, A. O‘zbek tili so‘z yasaliş tizimi.—Toshkent, O‘qituvchi, 2007-- .B.83-84

yo‘q. Shu sababli, tarjimachi yangi so‘z yasashdagi morfemalarning vazifasini tushunib, mazmunan to‘g‘ri, lekin tilga mos shaklni topishi zarur.

Bundan tashqari, ayrim holatlarda tarjimada so‘z yasash affikslarini ifodalash uchun ko‘proq so‘z birikmalari yoki ta‘riflovchi gaplar ishlatiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi «maktabgacha» so‘zini ingliz tilida preschool yoki before school kabi shaklda ifodalash mumkin. Bu esa ba‘zida tarjimada uzunroq va murakkabroq iboralar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Tarjimada so‘z yasash va affikslar muammosini yengillashtirish uchun ba‘zi bir choralari va yondashuvlari mavjud. Misol sifatida keltirishim mumkinki, bulardan biri bu ma‘noni saqlab qolishdir. Unda affiks orqali hosil qilingan so‘zning ma‘nosini to‘liq anglash va uni ifodalovchi eng mos ekvivalentni tanlash kerak bo‘ladi. Sinonimlarni qidirish bu ba‘zida yangi so‘z o‘rniga o‘sha ma‘noga yaqin mustaqil so‘zlar yoki iboralar ishlatiladi¹⁷.

Bundan tashqari yana ko‘plab tarjima jarayonida so‘z yasashga to‘g‘ri yondashuv va tavsiyalar mavjud bo‘lib ular turli vazifalarni bajarishda yordam beradi. Ulardan biri bu deskripsiya usulidir. Bu usulda agar so‘z yasash affiksi tarjimada yo‘q bo‘lsa, uning vazifasini izohlovchi gap yoki ibora yordamida ifodalash lozim.

Tilning tabiiyligini saqlash bu tarjimada so‘z yasash qoidalarini ortiqcha qo‘llamaslik, tabiiy va o‘quvchi uchun qulay ifodalarni tanlashdir. Madaniy kontekstni hisobga olish ayrim affikslar va so‘z yasash shakllari ma‘lum madaniyatga xos bo‘lishi mumkin, shuning uchun ularni tarjimada moslashtirish kerak bo‘ladi¹⁸.

O‘ylaymanki, tarjimada so‘z yasash va affikslar muammosi — bu faqat texnik tarjima muammosi emas, balki madaniy va lingvistik tafovutlarni ham yengib o‘tishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham jarayon tarjimondan kata mas‘uliyat va tajribani talab qiladi deb o‘ylayman.

Badiiy matnlar tarjimasida semantik muammolar xilma—xil va murakkab tuzilgan bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi faqatgina madaniy va ijtimoiy kontekstlarga bog‘liq muammo emas, balki tilning o‘ziga ham bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda uchraydigan semantik muammolar — bu matndagi ma‘nolarni aniqlik bilan anglab, ularni boshqa tilga to‘g‘ri o‘tkazishda yuzaga keladigan qiyinchiliklardir. Bunday muammolar ko‘pincha polisemiya (ko‘p ma‘nolilik), frazeologik birliklar, konnotatsiya, metafora, hamda madaniy-mental semantikalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Badiiy tarjimada matn nafaqat ma‘no darajasida, balki konnotativ, obrazli, emotsional va assotsiativ qatlamlarida ham to‘g‘ri talqin qilinishi zarur¹⁹. Tarjima jarayonida sinonimlardan birini tanlab olishda ularning semantik noaniqliklarini aniqlashi juda zarur bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida uchraydigan “melancholy” atamasi “g‘amginlik” yoki “nazokatli qayg‘u” tarzida

¹⁷ Xolmanova, Z. Tilshunoslik nazariyasi.—Toshkent, Nodirabegim.,-- 2020.-- B.91-93.

¹⁸ Uloqov, N. Tilshunoslik nazariyasi. O‘zbek tili so‘z yasash tizimi.—Toshkent, O‘qituchi,-- 2007.-- B.100.

¹⁹ Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2004. – 384 с.

tarjima qilinishi mumkin²⁰. Bunday vaziyatda tarjimon uslubiy va hissiy nuanslarni hisobga olgan holda tarjima qilishi kerak bo‘ladi. Albatta bu ijodkordan asarning uslubi, tilshunoslik nazariyalaridan xabardor bo‘lishi va til mahorati bo‘lishligi talab etiladi deb o‘ylayman.

Semantik muammolarning asosiy turlari

Ingliz tilidagi ko‘p ma'noli so‘zlar (polysems) tarjimada ayniqsa murakkablik tug‘diradi. Ularning to‘g‘ri talqini kontekst asosida aniqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi “light” so‘zi turli kontekstlarda yorug‘lik, engil, yengil, yong‘in, oson kabi turli ma'nolarda keladi. Tarjimon bu so‘zning mazmunini kontekst orqali aniqlashi, noto‘g‘ri tanlovdan qochishi kerak²¹

Masalan, “She carried a light heart despite the troubles.”

Noto‘g‘ri tarjima: U muammolarga qaramay, yengil yurak olib yurardi.

To‘g‘ri tarjima: U muammolarga qaramay, ko‘ngli yengil edi.

Bu yerda “light heart” — ko‘ngil yengilligi, xotirjamlik ma’nosida kelgan. Tarjimon aynan bu ma’noni tanlashi kerak, aks holda obraz buziladi. Polisemiyaga bog‘liq muammolar: bir so‘zning bir nechta ma’noga ega bo‘lishi tarjimonni qiynashi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “bank” so‘zi ham moliyaviy muassasa, ham daryo sohili ma’nosida ishlatiladi²².

Bundan tashqari tarjimadagi semantik muammolarga sinonimiya va antonimiya muammolari ham kiradi. Sababi tarjimon sinonimlar orasidan kontekstga mosini tanlay olmasligi mumkin va bu albatta qiyinchilik tug‘diradi va matn mazmuniga ta’sir qilishi mumkin. Maqsad tilida ma’lum bir so‘zning bir nechta sinonimlari mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘ziga xos uslubiy, konnotativ va semantik farqqa egadir. Shu o‘rinda tarjimonning sinonimlar tanlashdagi xatosi matnning rang-barangligini va ifodaning nozikligini buzishi mumkin.

Sinonimlik muammolari haqida misol sifatida shuni keltirishim mumkinki, “happy” va “joyful” so‘zlari ingliz tilida sinonim bo‘lsada, ularning konnotativ farqi mavjud. Chunki, “happy” so‘zi kundalik, oddiy his-tuyg‘ularni bildiradi, “joyful” esa ko‘proq yuqori, ruhiy balandlikni anglatadi²³.

Shuningdek, mana shunga o‘xshash tarjima jarayonida kelib chiqadigan sinonimlik muammolari badiiy asarlarda juda ko‘p uchraydi.

Masalan, Tricia Levensellerning Daughter of the Pirate King asarida sinonimlik muammosi, ya’ni bir xil ma’nodagi so‘zlarning takror-takror ishlatilishi, matnning stilistik sifati va tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biridir. Ushbu muammo, ayniqsa, asosiy qahramon Alosa haqida “pirat qiroli qizi” degan iboraning ortiqcha takrorlanishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

²⁰ Umaraliyeva .M.M. O‘ktamova.M.J. ” Badiiy asarlarda lingvokulturologik birliklarning tarjimasi muammolari” ORIENS,2022.--- B.558-563.

²¹ Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. – 245 p.

²² Ismoilova.M.M. “Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari” GOLDEN BRAIN,2023.--- B.97-101.

²³ Sotiboldiyeva.G.M. “Badiiy tarjimaning leksik muammolar tipologiyasi” O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konfrensiyalari.Toshkent ,2022.--- B.63-65.

<https://innovateconferences.org>

Cindy Hannikman tomonidan yozilgan Fantasy Book Criticdagi sharhda quyidagicha qayd etilgan:

“Alosa is, as the title suggests, the daughter of the pirate king. While this is a huge part of the story, it is mentioned ad nauseam. I am really not sure we went more than two or three pages without having someone – Alosa or the pirates that 'kidnapped' her – mentioning that Alosa was the daughter of the pirate king²⁴.”

O‘ylashimcha bu holatda ko‘rinib turibdiki, “daughter of the pirate king” iborasi har ikki-uch sahifada bir marta takrorlanadi, bu esa matnda sinonimlar yoki stilistik variantlarning yetishmasligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, badiiy matnlar tarjimasida boshqa ko‘plab semantik muammolar uchray turadi va ulardan biri bu madaniy xususiyatlardir. Shuning uchun ham tarjima jarayonida madaniy xususiyatlarni to‘g‘ri aks ettirish tarjimaning adekvatligi va o‘quvchiga yetkazilgan axborot sifati uchun muhimdir. Har bir til ma‘lum madaniy kontekstga bog‘langan bo‘lib, ayrim ibora, kinoya yoki hazillar boshqa madaniyat vakiliga tushunarsiz bo‘lishi mumkin.

Madaniy xususiyatlar bilan bog‘liq tarjima muammolar bular madaniy kinoyalar va metaforalar ham hisoblanadi: masalan, ingliz tilidagi “Achilles’ heel”²⁵ iborasi bevosita tarjimada tushunarsiz bo‘lishi mumkin.

Mening fikrimcha, diniy va an‘anaviy qadriyatlar ya‘ni turli diniy bayramlar, ibodat shakllari, harom-halol tushunchalari tarjimada sinchkovlikni talab qiladi. Shuning uchun ham, har bir holatda tarjimon asl matnning semantik mazmunini buzmaslikka harakat qilishi kerak bo‘ladi. Matn o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi, va madaniy nozikliklarni hisobga olgan holda, ammo asl ma‘noni saqlab qoladigan ifodani tanlashi zarur. Bu esa albatta tarjima qilgan tarjimonning lingvistik bilimlari bilan birga, madaniyatlararo kompetensiyasi ham yuqori bo‘lishini talab qiladi.

Badiiy matnlar tarjimasida uchraydigan sinonimlik muammosi haqida quyida ba‘zi bir misollar bilan tushuntirib o‘tmoqchiman. Masalan, ingliz tilida ko‘p uchraydigan so‘zlardan biri bu “He was furious” so‘zi ba‘zi asarlarda noto‘g‘ri tarjima qilingan uni ba‘zi tarjimonlar “U g‘azablangan edi” deb o‘girishadi ammo bu gapning to‘g‘ri tarjimasi “U g‘azablangan edi” yoki “U jahldan portlardi” deb tarjima qilinishi kerak va bu to‘g‘ri hisoblanardi. Sababi “furious” so‘zining kuchli emotsiyasi oddiy “g‘azablangan” bilan to‘liq ifodalanmasligi mumkin²⁶.

Shuningdek ko‘p ma‘nolilik yani polisemiya muammosi ham juda keng tarqalgandir va bu juda murakkab jarayon hisoblanadi. Sababi unda bir so‘z faqatgina bir ma‘no emas balki bir

²⁴ <https://fantasybookcritic.blogspot.com/2017/03/daughter-of-pirate-king-daughter-of.html>

²⁵ Xurulboyev.SH.A. Abduvoitov.R.A. “Tarjimada so‘z tanlash masalasi va badiiy tarjimadagi muammolar”. Eurasian Journal of Academic Research.-- 2022. – Vol. 1, No.9.-- B. 334-337. <https://zenodo.org/records>

²⁶ Ismoilova. M. M. Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari. GOLDEN BRAIN, 1(9), 2023 --B.98. URL: <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/2827>

necha yoki undan ham ko‘p ma‘no ifodalashi mumkin. Shuning uchun ham bu tarjimonga juda qiyinchilik tug‘diradi va mas‘uliyat yuklatadi deb o‘ylayman. Agar kontekstga qarab to‘g‘ri yondashilmasa noto‘g‘ri ma‘no tanlanishi mumkin va natijada bu hodisa tarjima buzilishiga olib keladi.

Bu masalaga misol sifatida na‘muna keltiradigan bo‘lsam, ingliz tilidagi “She broke down in tears” gapida ko‘p ma‘nolilik kuzatiladi. Agar uni tarjimonlar so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, “U buzilib ketdi ko‘z yoshlar ichida” deyilishi mumkin ammo bu xato tarjima hisoblanadi. Uni matn ma‘nosiga qarab to‘g‘ri ma‘no tanlab tarjima qilinsa, “U ko‘z yoshlariga chiday olmadi” yoki “yig‘lab yubordi” deb tarjima qilinadi. Chunki bu gapda “Break down” bu berda “buzilmoq” deb emas balki “ruhiy tushkunlikka tushmoq” deganidir²⁷.

Shuningdek, idiomalar ham badiiy tarjima jarayonida semantik muammolarga sabab bo‘lishi kuzatiladi. Agar ularni so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, asl ma‘nosi yo‘qoladi. Misol sifatida keltiradigan bo‘lsam, masalan, “That was the last straw²⁸” gapini biz “Bu so‘nggi somon edi” deb tarjima qiladigan bo‘lsak bu xato tarjima hisoblanadi va natijada ma‘no buzilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bunday xatoliklarning oldini olish maqsadida bu yerda “Bu uning sabrini to‘kkan oxirgi tomchi bo‘ldi” deb o‘g‘irgan to‘g‘riroq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Vinay, J.P., & Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English : A Methodology for Translation. Amsterdam John Benjamins Publishing,-- 1995. P.36-39.
2. Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall 1988 – P.88.
3. Komissarov, V.N. Theory of Translation. Moscow : Vyssaja Shkola, 1990.-- P.37.
4. Kunnuzova, M.R. Tarjimada frazeologizmlarni ekvivalentlash muammolari. Toshkent, 2019: O‘ZMU.nashriyoti. B.34-35.
5. Farajova, U.A. “Affixation: A Productive Way of Word Formation .” Research in Multidisciplinary Studies, 2024. -- B.2-3.
6. Hojiyev, A. O‘zbek tili so‘z yasash tizimi.—Toshkent, O‘qituvchi, 2007-- .B.83-84.
7. Xolmanova, Z. Tilshunoslik nazariyasi.—Toshkent, Nodirabegim.,-- 2020.-- B.91-93.
8. Uloqov, N. Tilshunoslik nazariyasi. O‘zbek tili so‘z yasash tizimi.—Toshkent, O‘qituvchi, - 2007.-- B.100.
9. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2004. – 384 с.
10. Umaraliyeva .M.M. O‘ktamova.M.J. ” Badiiy asarlarda lingvokulturologik birliklarning tarjimasini muammolari” ORIENS, 2022.--- B.558-563.
11. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. – 245 p.

²⁷ Rahmonqulova, F.A. Badiiy tarjimada leksik stilistik bo‘yoqdorlik muammolari. Qo‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnal, 5(1).

²⁸ Abduxoliqova, G. “Badiiy tarjimada semantik moslik va muammolar.” Filologiya masalalari. -- 2021, N (2). -- B.51-53.

12. Ismoilova.M.M. “Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari” GOLDEN BRAIN,2023.--- B.97-101.
13. Sotiboldiyeva.G.M. “Badiiy tarjimaning leksik muammolar tipologiyasi” O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konfrensiyalari.Toshkent ,2022.--- B.63-65.
14. <https://fantasybookcritic.blogspot.com/2017/03/daughter-of-pirate-king-daughter-of.html>.
15. Xurulboyev.SH.A. Abduvoitov.R.A. “Tarjimada so‘z tanlash masalasi va badiiy tarjimadagi muammolar”. Eurasian Journal of Academic Research.-- 2022. – Vol. 1, No.9.- - B. 334-337. <https://zenodo.org/records>.
16. Ismoilova. M. M. Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari. GOLDEN BRAIN, 1(9), 2023 -- B.98. URL: <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/2827>.
17. Rahmonqulova,F.A. Badiiy tarjimada leksik stilistik bo ‘yoqdorlik muammolari. Qo ‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnal, 5(1).
18. Abduxoliqova.G. “Badiiy tarjimada semantik moslik va muammolar.” Filologiya masalalari . -- 2021, N (2). -- B.51-53.
19. Sotiboldiyeva .G.M. Badiiy tarjimaning leksik muammolar tipologiyasi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konfrensiyalari . – Toshkent,2024.-- B.64.
20. Ismoilova.M.M. Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari . GOLDEN BRAIN 1(9),2023 -- B.102.